

## TARKIBIDA ANTIBIOTIK SAQLAGAN DORI TURLARI

*Islomova Gulrux Islom qizi  
Sayfullayeva Hayotxon Sayfulla qizi  
Tashev Baxtiyor Yuldasbayevich  
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** Tibbiyotda ishlataladigan dori moddalar ichida antibiotiklar cng kuchli ta'sir etuvchi moddalar hisoblanadi. Dori shakllarini tayyorlash texnologiyasining o'ziga xosligini hisobga olgan holda antibiotiklar bilan dori preparatlari tayyorlashni quyidagicha umumlashgan holatini hisobga olish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Antibiotik, kukunlar , surtmalar, Tomchi dorilar, kamsulalar, tablitkalar .

Antibiotiklar terminini Amerika olimi Z. Vaksman mikroblarda hosil bo'lib, boshqa mikro-blarga qarshi ta'sir etadigan moddalarga nisbatan taklif etgan. Antibiotiklar kasallantiruvchi (patogen) mikroblardagi moddalar almashinuvini buzib, ularni o'ldiradi yoki o'sishini to'xtatadi. Antibiotiklar turli mikroblarga turlicha ta'sir etadi. Masalan; bir antibiotik ma'lum bir mikrobgaga kuchli ta'sir etgani holda, boshqa mikrobgaga kuchsiz ta'sir qiladi yoki butunlay ta'sir qilmaydi; Antibiotiklarning ko'pchiligi faqat mikroblarni emas, balki odam, hayvon va o'simlik organizmini (to'qima va hujayralarini) ham yemiradi. Ko'p antibiotiklar tayyor (liofil) tabletka, surtma dori shaklida ishlab chiqariladi. Dorixona sharoitida antibiotiklardan surtma, eritma (tomchi), shamchalar va kukunlar tayyorlanadi.

Antibiotiklarning xususiyatlari : Antibiotiklarni , tez parchalanib ketishi; Kislotali sharoitga chidamsizligi; Yarim parchalanish davrining qisqaligi; Ko'pchilik yordamchi moddalar bilan o'zaro ta'sirlanish kobiliyati; Ko'pchilik antibiotiklarni suvda erimasligi va suvli eritmalarini etarli darajada turg'un emasligi; Antibiotiklarni haroratga chidamsizligi; Boshqa dorivor moddalar bilan kimyoiy va farmakologik jihatdan nomutanosiblikni namoyon kilishi; Mikroorganizmlarga o'ta ta'sirchanligi;

Antibiotiklarni ana shu ko'rsatilgan va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uni dori shakli texnologiyasi ishlab chiqiladi. Dori shakli tarkibidagi antibiotikni ma'lum vaqt ichida turg'unligi ta'minlanishi kerak. Dori shakli esa tanaga terapevtik konsentratsiyadagi antibiotik miqdorini ta'minlay oladigan shaklda bo'lishi zarur. Masalan: levomitsetin haroratga chidamlı antibiotik; uning eritmalarini sterillash mumkin, penitsillin esa eritma shaklida o'ta chidamsiz. Gramitsidin 2% li spirtli , ishlatilganda uni 1:100 nisbatda tozalangan suv yoki 70% li spirt bilan suyultirilib qo'llaniladi. Levomitsetin spirtda yaxshi eriydi, lekin

benzilpensillinni spirtdagi eritmasi uni murakkab efir hosil kilish xususiyati bilan bog'liq bo'lib, ta'sir darajasini yo'kotib yuboradi. Penitsillinni suvdagi eritmasi xona sharoitida 4-6 soat turg'un bo'lsa pH 6,5 bo'lgan bufer eritmada ( $50^{\circ}\text{S}$ ) da 15-20 kungacha saqlash mumkin. SHuni hisobga olgan holda penitsillin, levomitsetin va boshqa antibiotiklarni eritish maqsadida erituvchi sifatida har xil bufer eritmalar qo'llaniladi. Antibiotiklar bilan tayyorlanadigan hamma dori shakllari aseptik sharoitda tayyorlanadi.

**ANTIBIOTIKLARNI ISHLATISHGA DOIR UMUMIY YO`L-YO`RIQLAR:** Agar siz antibiotikning qanday ishlatilishini va qanday infeksiyalarga qarshi kurashishini aniq bilmasangiz, uni ishlatmang. Siz davolamoqchi bo`lgan infeksiyaga qarshi faqat tavsiya etilgan antibiotikni ishlating. Antibiotiklarning ishlatilishidagi xavfl i tomonlarini biling va kitobda berilgan ehtiyyot choralariga rioya qiling. (Yashil Sahifalar bo'limiga qarang). Antibiotiklarni faqat tavsiya qilingan miqdorlarda ishlating (ko`p ham emas, oz ham emas). Antibiotik miqdori kasallik va bemorning yoshi va vazniga bog`liq. Agar antibiotik tabletkalarini ichib yaxshi natijaga erishsangiz, hech qachon ularning ukolini olmang. Faqat juda zarur bo`lib qolgandagina ukol oling. Kasallik belgilari to`la yo`qolib ketgunga qadar antibiotiklar ichishni to`xtatmang. Isitma yoki kasallikning barcha belgilari yo`q bo`lib ketgandan so`ng ham dori ichishni kamida yana 2 kun davom ettiring. (Sil, moxov kabi ba`zi kasalliklar bemor yaxshi bo`lib qolganidan keyin ham, dorini oylar yoki yillar davomida qabul qilishi kerak. Har bir kasallik xususida berilgan yo`l-yo`riqlarga rioya qiling). Agar antibiotik toshma, qichishish, nafas qiyinlashishi yoki boshqa jiddiy ta`sirlar sababchisi bo`lsa, uni qabul qilishni to`xtating va siz butun hayotingiz davomida bu dorini qayta ishlatmasligingiz kerak. Antibiotiklarni juda zarur paytlardagina ishlating. Antibiotiklarning ko`p qabul qilinishi, infeksiyaga qarshi kurashadigan kuchining pasayishiga olib kelishi mumkin.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013y
2. <https://hesperian.org/>